

**«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ boshqaruvining
2023-yil yakuni bilan moliyaviy xo‘jalik faoliyati va biznes reja
ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha hisoboti**

2023-yil yakuni bilan amaldagi narxlarda 754,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi (reja bajarilishi 82%), o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,9% ni tashkil etdi.

Hisobot davri davomida sof holda 217,5 ming tonna rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 198,1 ming tonna kaliy xlorid ishlab chiqarilib, reja bajarilishi 91,1% ni tashkil etgan. (2022-yil yakuni bilan 197,9 ming tonna kaliy xlorid ishlab chiqarilgan.)

2023-yilda 280,0 ming tonna 68,0 mln. AQSh dollarlik kaliy xlorid eksport qilish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 164,3 ming tonna (58,7% foiz) 38,6 mln. dollarlik (56,8 %) mahsulotlar eksport qilindi.

Jamiyat biznes-rejasi ko‘rsatkichlarning bajarilishi

(mln. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Biznes-reja	Amalda	o‘zgarishlar	
			+/-	%
Sotilgan mahsulot	1 014 589	696 482	318 107	68,6
Davr xarajatlari, jami	201 420	221 677	-20 257	110,1
<i>shu jumladan:</i>				
<i>sotish xarajatlari</i>	43 029	43 799	-770	101,7
<i>ma‘muriy xarajatlar</i>	19 427	25 976	-6 549	133,7
<i>boshqa operatsion xarajatlar</i>	138 962	151 900	-12 938	109,3
Sof foyda	202 015	17 749	184 266	8,7

2023-yil yakunlariga ko‘ra sotishdan tushgan daromad prognozga nisbatan 318 107 mln. so‘mga (68,6 %) kamaygan, davr xarajatlari esa 20 257 mln. so‘mga (110,1%) ko‘paygan, bunda sotish xarajatlari 770 mln so‘mga, ma‘muriy xarajatlari 6 549 mln so‘mga, boshqa operatsion xarajatlari 12 938 mln so‘mga rejaga nisbatan oshgan.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlaridan 1 514 mln. so‘mlik qo‘shimcha daromad olindi.

Jamiyatda 2023-yil yakuni bilan 202 015 mln. so‘m sof foyda olish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 17 749 mln. so‘m sof foyda olindi. Sof foyda ko‘rsatkichi 8,7% ga bajarildi yoki sof foyda hajmi 184 266 mln. so‘mga kamaygan. Sotilgan mahsulotlarning rentabelligi 2,5 foizni tashkil etdi.

Moliyaviy natijalar tahlili

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2023-yilgi daromadlari tahliliga ko‘ra, moliyaviy natijalarning o‘tgan yilning shu davriga nisbatan kamayishiga olib keldi. Korxonaning sof tushumi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 379 477 mln. so‘mga

(64,7%) kamaydi, yalpi foydasi esa 416 645 mln. so‘mga (47,5%) kamaydi, buning natijasida jamiyatda 2023-yil yakuni bilan 17 749 mln. so‘m sof foyda olindi.

(mln so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2022 yil	2023 yil	o‘zgarishlar	
			+/-	%
Sof tushum	1 075 959	696 482	379 477	64,7
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	281 804	318 973	-37 169	113,1
Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi	794 154	377 509	416 645	47,5
Davr xarajatlari	201 877	221 677	-19 800	109,8
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	2 300	1 514	786	65,8
Asosiy faoliyatning foydasi	594 577	157 346	437 231	26,4
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	277 226	165 840	111 386	59,8
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	462 672	305 437	157 235	66,1
Hisobot davrining sof foydasi	345 473	17 749	327 724	5,1

Xarajatlar tahlili

(mln. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2022 yil	2023 yil	o‘zgarishlar	
			+/-	%
Sotilgan mahsulotdan sof tushum	1 075 959	696 482	379 477	64,7
Davr xarajatlari, jami	201 877	221 677	-19 800	109,8
<i>shu jumladan:</i>				
<i>sotish xarajatlari</i>	40 718	43 799	-3 081	107,5
<i>ma‘muriy xarajatlar</i>	22 022	25 976	-3 954	117,9
<i>boshqa operatsion xarajatlar</i>	139 136	151 900	-12 764	109,1

Jamiyatning 2023-yilgi yakuniy moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan mahsulot 379 477 mln.so‘mga (64,7%) kam sotilgan bo‘lsa, davr xarajatlari 19 800 mln. so‘mga (109,8%) ga ko‘paygan, shundan sotish xarajatlar 3 081 mln. so‘mga (107,5%) ga, ma‘muriy xarajatlar 3 954 mln so‘mga (117,9%) ga, boshqa operatsion xarajatlar esa 12 764 mln. so‘mga (109,1%) ga ko‘paygan.

Debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar tahlili

(mln so‘m)

T/r	Ko‘rsatkich-lar	hisobot boshida	shundan muddati o‘tgan	hisobot yakunida	shundan muddati o‘tgan	o‘zgarishlar	
						+/-	%
1	Debitor qarzdorlik, jumladan:	1 769 677	-	1 955 719	-	-186 042	110
	Xaridor va buyurtmachilarning qarzi	63 780	-	111 181	-	-47 401	174
	Savdo bo‘yicha	61 353	-	123 905	-	-62 552	201
	Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	18 622	-	31 730	-	-13 108	170
	Boshqa debitor qarzdorlik	14 123	-	76 891	-	-62 768	544
	Ta‘sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi	1 604 354	-	1 604 354	-	-	-
2	Kreditor qarzdorlik, jumladan:	31 228	-	140 697	-	-109 469	450
	Savdo bo‘yicha	9 466	-	14 714	-	- 5 248	155
	Ta‘sischilarga bo‘lgan qarz	-	-	102 178	-	- 102 178	-
	Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz	4 370	-	6 339	-	- 1 969	145
	Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz	2 135	-	1 769	-	366	82
	Boshqa kreditorlik qarzdorlik	9 653	-	10 246	-	- 593	106

Hisobot yili boshi bilan solishtirganda jami debitor qarzdorlik 186 042 mln. so‘mga oshgan bo‘lib, xaridor va buyurtmachilarning qarzi 47 401 mln. so‘mga, savdo bo‘yicha 62 552 mln. so‘mga, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha 13 108 mln. so‘mga hamda boshqa debitorlik qarzdorlik 62 768 mln. so‘mga oshgan.

Hisobot yili boshi bilan solishtirganda jami kreditor qarzdorlik 109 469 mln. so‘mga oshgan bo‘lib, ta‘sischilarga to‘lanadigan dividend bo‘yicha qarzdorlik 102 178 mln. so‘mga, savdo bo‘yicha 5 248 mln. so‘mga, byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik 1 969 mln. so‘mga, boshqa kreditorlik qarzdorlik 593 mln. so‘mga oshgan.

Boshqaruv raisi v.b

T.Zaripov